









II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 836,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,9 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish

(yanvar-mart oylarida)

	Ko'rsatkichlar	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
		2024- yil	2025- yil	
	I. YAHM	11 624,2	13 836,5	106,4
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 430,3	13 549,2	106,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	193,9	287,3	108,9
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 430,3	13 549,2	106,3
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 690,3	1 939,5	103,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 992,5	3 693,4	109,1
	sanoat	2 100,1	2 646,2	109,2
	qurilish	892,4	1 047,2	108,7
	Xizmatlar	6 747,5	7 916,3	105,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 510,2	3 026,4	107,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	847,1	1 055,4	115,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 390,2	3 834,5	102,3


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi
(% da)

2024- yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)


2025- yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-mart oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 145 835,3 mlrd so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 9 117,8 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida 125 486,1 mlrd so‘mni, Namangan viloyatida esa 7 795,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-mart oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 45,6 % (2024- yil yanvar-mart 46,7 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 67,3 % (2024- yil yanvar-mart 68,2 %) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 67,3 % ni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-mart oyida – 68,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart
Yanvar-mart	3 782,7	4 409,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2025- yil yanvar-mart)

Ko'rsatkichlar	mlrd so'm		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O'zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	333 592,7	13 836,5	4,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	319 817,0	13 549,2	4,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	13 775,7	287,3	2,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	319 817,0	13 549,2	4,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30 448,1	1 939,5	6,4
Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda)	109 985,2	3 693,4	3,4
sanoat	89 119,9	2 646,2	3,0
qurilish	20 865,3	1 047,2	5,0
Xizmatlar	179 383,7	7 916,3	4,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	39 115,7	3 026,4	7,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	32 018,9	1 055,4	3,3
boshqa xizmatlar	108 249,1	3 834,5	3,5

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,3 %), sanoatda – 109,2 % (19,5 %), qurilishda – 108,7 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % ni (58,5 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,2 % (22,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog'ida 115,2 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,3 % dan (28,4 %) iborat bo'ldi.

2024-2025- yil yanvar-martda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

